

# "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/disclosure/indicators/report-2023>

## I. 2023-yilda erishilgan asosiy ko'rsatkichlar.

**Sanoat** – kimyo korxonalari tomonidan 2023-yilda **15,7 trln so'm** (*biznes rejaga – 103,8 foiz, o'sish sur'ati – 97,4 foiz*) tovar mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Jami sof holda **1 410,2 ming tonna** mineral o'g'itlar, shundan, **1 103,4 ming tonna** azotli, **108,8 ming tonna** fosforli va **198,0 ming tonna** kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

2022-yilning mos davriga nisbatan past zichlikdagi ammoniy nitrati (NANP) **4,2 ming tonnaga**, kalsinatsiyalangan soda **6,5 ming tonnaga**, natriy nitrati **1 158 tonnaga**, natriy sianidi **1 121 tonnaga**, KMS **522 tonnaga** ishlab chiqarish hajmlari oshirildi.

**Eksport** – eksport hajmi **495,2 mln dollarni** yoki rejaga nisbatan **100,4 foizga**, o'sish sur'ati **102,7 foizga** ta'minlandi. Bunda **315,9 mln dollarlik** (*rejaga – 80,6 foiz*) mineral o'g'itlar va **179,2 mln dollarlik** (*rejaga – 177,6 foiz*) boshqa turdagi kimyo mahsulotlari eksportga yo'naltirildi.

Asosiy eksport hajmi Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston, Rossiya, Litva, Latviya, Ruminiya va Turkiya yo'nalishlari bo'yicha (*82,3 foiz*) amalga oshirilgan. Shu bilan birga, **kaliy mahsuloti** eksportining asosiy qismi Litva, Latviya, Eron, Turkiya, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya, Vyetnam va Filippin davlatlariga (*68,0 foiz*), **kalsinatsiyalangan soda** mahsulotining eksporti Qozog'iston, Turkmaniston davlatlariga (*78,3 foiz*) to'g'ri qildi.

**Investitsiya** – investitsiya dasturiga kiritilgan **24 ta** loyiha doirasida **524,7 mln dollar** o'zlashtirilib, reja **103,1 foizga** bajarildi, o'sish sur'ati **190,5 foizini** tashkil kildi.

Shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar **490,6 mln dollarni** (*105,9 foiz*), davlat kafolati ostida kreditlar **1,6 mln dollarni** (*100 foiz*) tashkil qildi.

**Mahalliyashtirish** – mahalliyashtirish dasturiga asosan **34 ta** loyiha doirasida **2 924,6 mlrd so'm** mahsulot ishlab chiqarildi va reja-ko'rsatkich **103,6 foizga** bajarildi.

Dasturga kiritilgan **34 ta** loyihadan **26 tasining** mahalliyashtirish darajasi **100 foiz** bo'lib, mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan.

**Mineral o'g'itlarni birja savdolariga qo'yish** – respublika iste'molchilariga 2023-yilda jami fizik holda **3 909,0 ming tonna** mineral o'g'itlar birja savdolariga qo'yilgan bo'lib, shundan **1 939,7 ming tonna** sotilgan, jumladan, azotli o'g'itlar **1 576,7 ming tonna**, fosforli o'g'itlar **224,7 ming tonna** va kaliyli o'g'itlar **138,3 ming tonna** birja savdolarida sotildi.

## II. Transformatsiya jarayonlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

"O'zkimyosanoat" AJ yurtimiz kimyo sanoati tarixida ilk bor "**BB-**" "**Barqaror**" **xalqaro kredit reytingini** qo'lga kiritdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish, sohaga keng qamrovli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida qabul qilingan qator Farmon va qarorlarida bir qancha vazifalar belgilangan. Vazifalar qatorida "O'zkimyosanoat" AJ korporativ xalqaro kredit reytingini

olishi ham qayd etilgan. Kimyo korxonalarida davlat ulushini qisqartirish, transformatsiya qilish, sohaga korporativ boshqaruv va xalqaro kredit reytingini qo'lga kiritish borasidagi ishlar yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan kimyo sanoatining investitsion jozibadorligini yangi darajaga olib chiqish maqsadida "**Fitch Ratings**" va "**Moody's**" kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari bilan xalqaro kredit reytingini qo'lga kiritish bo'yicha shartnomalar imzolangan.

Joriy yilning 24-oktabr kuni London shahrida **Fitch Ratings** agentligi va "O'zkimyosanoat" AJ vakillari o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Natijada **Fitch Ratings** reyting qo'mitasi "O'zkimyosanoat" AJga xalqaro kredit reytingini berish to'g'risida qaror qabul qildi. "O'zkimyosanoat AJ" yurtimiz kimyo sanoati tarixida ilk bor "**BB-**" "Barqaror" **xalqaro kredit reytingini** qo'lga kiritdi.

Qolaversa, Jamiyat va xalqaro agentlik o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshirish uchun korxonalar 2 ta xalqaro kredit reytingga ega bo'lishi shartligi belgilangan. Shu munosabat bilan, bir vaqtda **Moody's** xalqaro reyting agentligi bilan ham ishlar olib borilib, **B1 (barqaror)** xalqaro kredit reytingi qo'lga kiritildi.